



Shaxloxon XUSANOVA,
PhD, *Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Andijon, O‘zbekiston*
E-mail: sahlohusanova4@gmail.com, [ORCID.ORG/0009-0003-2164-5289](https://orcid.org/0009-0003-2164-5289)

AQXAI dotsenti M.Karimova taqrizi asosida

MARHAMATLIK LARNING IKKINCHI JAHON URUSHIGA QO‘SHGAN HISSASI (URUSH ISHTIROKCHISI IMINJON TEMIROV BILAN SUHBAT MATERIALLARI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur maqola Andijon viloyati Marhamat tumanida yashovchi ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Iminjon Temirov bilan olib borilgan suhbat asosida yoritilgan. Ma'lumotlarda marhamatlik mehnatkashlarining ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, front ortida mehnat qilgan marhamatliklar, urush qahramoni To'xtasin Mirzayev, urush ishtirokchisi Iminjon Temirovning qahramonliklari haqida yozilgan. Shuningdek maqolada, urush sabab yetim qolgan bolalar uchun Marhamat rayonida tashkil etilgan bolalar uylari faoliyati va urush uchun neft maxsulotlari yetkazib bergan Polvontosh neft korxonasi haqida ham fikrlar bildirilgan. Marhamatliklarning front uchun yuborgan moddiy yordami, kiyim-kechaklar, oziq ovqatlar va boshqalar haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, Marhamat rayoni, front orti mehnatkashlari, urush qahramoni, bolalar uylari, neft korxonasi, paxta, qishloq sovetlari.

ВКЛАД НАРОДА МАРХАМАТА ВО ВТОРУЮ МИРОВОЮ ВОЙНУ

Аннотация

Статья основана на интервью с ветераном Великой Отечественной войны Иминжоном Темировым, проживающим в Мархаматском районе Андижанской области. В статье рассказывается об участии трудящихся Мархамата во Второй мировой войне, о жителях Мархамата, работавших в тылу, о героизме героя войны Тохтасина Мирзаева и ветерана войны Иминжона Темирова. В статье также говорится о деятельности детских домов, созданных в Мархаматском районе для детей, осиротевших в результате войны, и о нефтяной компании «Полвонташ», которая поставляла нефтепродукты для нужд войны. Также есть информация о материальной помощи, одежде, продуктах питания и других вещах, которые жители Мархамата отправляли на фронт.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Мархаматский район, труженики тыла, герой войны, детские дома, нефтяная компания, хлопок, сельсоветы.

THE CONTRIBUTION OF THE MARHAMAT POPULATION TO THE SECOND WORLD WAR

Annotation

This article is based on an interview with Iminjon Temirov, a World War II veteran living in the Marhamat district of Andijan region. The information includes information about the participation of Marhamat workers in World War II, Marhamat residents who worked behind the front lines, the heroism of war hero Tokhtasin Mirzayev, and war veteran Iminjon Temirov. The article also discusses the activities of orphanages established in the Marhamat district for children orphaned by the war, and the Polvontash oil company, which supplied oil products for the war. There is also information about the material assistance, clothing, food, and other things that Marhamat residents sent to the front.

Key words: World War II, Marhamat district, front-line workers, war hero, orphanages, oil company, cotton, rural soviets.

Kirish. Insoniyat tarixidagi eng yirik urushlardan biri, XX asr fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirgan Ikkinchi jahon urushi millionlab odamlarning xonavayron bo'lishiga, yostig'ini qurishiga va katta yo'qotishlariga sabab bo'ldi. Xalqimizning Ikkinchi jahon urushi davridagi jasorati va fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hisssasi beqiyos. Bu yo'lda qanchadan-qancha ajdodlarimiz qurbon bo'lgan, jasorat ko'rsatgan. Front ortida minglab yurtdoshlarimiz og'ir sharoitda mehnat qilgan. Ikkinchi jahon urushi barcha o'zbekistonliklar kabi marhamatliklar uchun ham katta yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Butun mamlakatda bo'lgani kabi, Marhamat rayonida ham harbiy safarbarlik e'lon qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mana shu vatandoshlarimizning so'nmas xotirasini tiklash, ularning frontda va front ortida ko'rsatgan jasoratlarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kun tarixchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, bugungi tinch va osuda hayotimizni ta'minlash uchun tengsiz jasorat namunasini

ko'rsatgan, Vatan uchun jon fido qilgan yurtdoshlarimizning matonatini hech qachon unutib bo'lmaydi.

Ikkinchi jahon urushi davri tarixshunosligida "Xotira" kitobining ahamiyati katta. "Xotira" kitobida Marhamatdan yuborilgan yurtdoshlarimiz ro'yxati ham joy olgan bo'lib, ma'lumotlar keyingi nashrlarda qo'shimcha ro'yxatlar bilan to'ldirildi [6,7,8].

"Andijonlik qahramonlar", "Andijonlik o'n bahodir" publitsistik asarlarida urush qahramoni marhamatlik To'xtasin Mirzaev haqida ma'lumotlar keltirilgan. To'xtasin Mirzaev misolida marhamatlik mard o'g'lonlarning jasoratlari esdaliklar asosida badiiy talqin etilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod asosida II-jahon urushining kelib chiqish sabablari hamda marhamatliklarning urushga qo'shgan xissasi kabi masalalar tahlil qilindi.

Og'zaki tarix metodi orqali II-jahon urushida ishtirok etgan Iminjon Temirovning ma'lumotlari asosida o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, urushning dahshatlari va

xalqimizning matonati haqidagi fikrlarga oydinlik kiritildi. Bu esa urush yillarini bevosita davr ishtirokchisi ma'lumotlari asosida tahlil qilish imkonini berdi.

Mazkur yondashuvlar maqolaning ilmiy aniqligini oshirib, II-jahon urushining mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. 1939-1945 yillarda sodir bo'lgan ikkinchi jahon urushi barcha o'zbekistonliklar kabi marhamatliklar uchun ham katta yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Butun mamlakatda bo'lgani kabi, Marhamat rayonida ham harbiy safarbarlik e'lon qilindi. Urush yillari rayon umumiy aholisi soni 7996 xo'jalik, 45000 kishini tashkil etardi. Urushning dastlabki yilida 1698 nafar marhamatlik urushga yuborilgan. 1941-1945 yillar davomida urushning qaynoq o'choqlariga Marhamat rayonidan jami 9052 nafar (dastlabki ma'lumotlarda 4500 nafar qayd etilgan) vatanparvar yuborilgan. Ulardan 2541 tasi urushda xalok bo'lgan [6,7, 8,].

Ikkinchi jahon urushida qatnashib, janglarda ko'plab fashistlarni yer tishlatib, qahramon unvoni berilgan andijonliklar orasida Marhamat farzandi To'xtasin Mirzayev bo'lib, u 1943-yil 3-oktyabr kuni Antonovka rayoni Mishurin-Rog mahallasining janubiy-g'arb tomonidagi 16,7 tepalik uchun janglarda mardlarcha xalok bo'ladi. To'xtasin Mirzayevga SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 20-dekabrda farmoniga binoan "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni berildi [4].

Ikkinchi jahon urushida Germaniya va Yaponiyaga qarshi urushlarida marhamatlik Iminjon Temirov ham ishtirok etgan. Tadqiqotlar davomida Iminjon Temirov bilan bo'lgan og'zaki suhbat orqali uning urushdagi jasorati, hayoti haqida ma'lum bo'ldi. U 1950-yilgacha urush o'choqlarida mardlarcha jang qilgan. U 113-o'qchi brigadada minomyotchi bo'lib, Sarapul, Primore, Kurill oroli, Janubiy Saxalindagi janglarda ishtirok etgan. Iminjon Temirov 1950 yilda o'z vatani Marhamatga qaytib kelib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'lida mehnat qilgan.

Iminjon Temirovning aytishicha Marhamatlik mehnatkashlar front ortida kechayu kunduz mehnat qilib, nafaqat vatanimizni fashizm balosidan qutqarishga o'z xissalarini qo'shganlar. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun" shiori ostida barcha yetishtirilgan mahsulotlar front uchun yuborilgan. Hozirgi kunda Iminjon Temirov 102 yoshga kirib, 39 nabira, 45 chevaraning ardog'ida yashamoqda.

Marhamat rayonidagi barcha iqtisodiy imkoniyatlar urush harajatlariga qaratildi. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun" shiori ostida barcha yetishtirilgan mahsulotlar front uchun yuboriladi. Marhamatlik mehnatkashlar front ortida kechayu kunduz mehnat qilib, nafaqat vatanimizni fashizm balosidan qutqarishga o'z xissalarini qo'shdilar. Marhamat rayonidan 1941-yilning 1 noyabr kunigacha urushga 511 dona paxtali kalta to'n, 201 dona paxtali shim, 244 dona ko'rpa, 243 dona adyol, 1038 juft junpaypoq, 13 dona piyma, 35 dona qo'lqop, 50 dona quloqchin, 836 dona teri, 751 kg jun, 729 dona ro'molcha, ko'p miqdorda issiq ko'ylak va boshqa bir qancha mahsulotlar yuborildi [5]. Marhamatlik mehnatkashlar 1942-yilda esa 200 dona shapka, 300 juft qo'lqop, 300 juft paypoq, 300 dona issiq kiyim, 150 dona paxtali kurtka, 150 dona sharf, 810 dona junli

kiyimlar, 960 dona qo'y terisi, 40 dona bo'ri terisini yuborgan [10]. Marhamat rayonidan jami 27 m3 yog'och, 150 kg mix, 10 ta pech, 10 ta plita, 32 ta lampa, 15 ta paqir, 2 ta yog'och bochka, 15 m3 o'tin yuborilgan [9].

Urush sabab minglab bolalar yetim qolgan. 1942-yilda rayonda 5-bolalar uyi tashkil etilgan [12]. 1943-yilda Marhamat rayonida yana bir 14-sonli bolalar uyi tashkil etiladi. Bolalar uylariga Polshaning Pultovskiy qishlog'idan, Ukrainaning Kiyev shahridan, Odessadan, Voroshilov, Filatovna, Chkalov shaharlaridan jami 98 nafar rus, ukrain, yevrey va xattoki nemis millatiga mansub bolalar keltiriladi. Ularga marhamatliklar mehr ko'rsatib, g'amxo'rlik qiladilar [11].

Urush yillarida Marhamat rayonida jami 9 ta qishloq soveti, 34 ta kolxoz mavjud bo'lgan. Dalalarda asosan ayollar, qariyalar va yosh bolalar mehnat qilardi. Ular xosilni nobud qilmay yetishtirishga harakat qilardilar. Texnika va ishchi kuchining yetishmasligi natijasida ekinlarning nobud bo'lish xolatlarini ham kuzatildi. Xattoki, ekin ekilmay qolgan rayondagi 4 ming gektarga yaqin yer yaroqsiz xolga kelib qolgandi. 1943-yilda 6460 gektar yerga paxta, 5967 gektar yerga don, 750 gektar yerga sholi ekildi. Paxta xosilini 6,0 sentnerdan, donni 3,5 sentnerdan yig'ib olindi. Bu juda kam ko'rsatkich edi. Lekin, mehnatkash marhamatliklar sabr bilan tinmay mehnat qilib, iqtisodiyotni tiklashga yordam berdilar. Urush yillari front ortida mehnat qilgan 1277 kishi "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida matonatli mehnati uchun" medali bilan taqdirlanadi [13].

Urush yillarida rayonda bitta tikuvchilik va bitta poyafzal korxonalarini faoliyat olib borar edi. Marhamat rayoni asosan neft sanoatini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga xissa qo'shdi. 1941-yil 29 iyun kuni Ittifoq hukumatining mamlakatda neft va ko'mir sanoati ishini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan direktiva asosida 1942-yilda "Polvontosh" neft sanoat korxonasi ishga tushadi. Shu yili "Polvontosh", "Andijon", "Janubiy Olamushuk" neft konlari jamoasi 8 oylik rejani 121% ga bajarib, davlatga 16 ming 800 tonna neft yetkazib beradi [3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi Marhamat rayoni xalqiga ham katta yo'qotishlarga, ocharchilik, iqtisodiy tanglik kabi qiyinchiliklarni yengib o'tishiga sabab bo'ldi. Urush qahramoni To'xtasin Mirzayev va ishtirokchisi Iminjon Temirovlar kabi minglab marhamat farzandlari fashizmga qarshi janglarda mardonavor kurashdilar. Urush yillarida marhamatlik mehnatkashlar matonat bilan mehnat qilib, front ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan sanoat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berdilar va g'alabaga munosib hissa qo'shdilar.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Hozirgi kunda Andijon viloyati Marhamat tumanida yashovchi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Iminjon Temirov bilan suhbatlar asosida video ma'lumotlar jamlanmasi yaratish,

Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan marhamatliklarning xotiralari va rasmlari asosida kitob albom tashkil etish.



1-rasm. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Iminjon Temirov (1924-yilda tug'ilgan. Andijon viloyati, Marhamat tumani, Paxtakor qishlog'i. 2023-yil 28-oktabr) va Sh.Xusanova.



2-rasm. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Iminjon Temirov va Sh.Xusanova Qo'qon universiteti Andijon filiali talabalari bilan. 2026-yil 5-may

ADABIYOTLAR

1. Александр Долуда. Дважды рожденная. –Кемерово, 2000. – С.1.
2. Андижонлик ўн баҳодир. – Андижон, 1995. – Б. 8-10.
3. Махаммадюнусов Ш., Мамасолиев Ғ. Иккинчи жаҳон уруши даврида Андижон вилояти иқтисодиёти // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. –Андижон: 2015. –Б.375
4. Муҳиддинов З. Султонов А. Андижонлик Қахрамонлар. –Андижон: “Андижон нашриёти”, 1995. –Б.14.
5. Нестеренко. Жонажон кизил армиямиз учун иссиқ кийимлар.// Сталинчилар овози. 1941 й. №49
6. Хотира. 2-китоб. Андижон вилояти. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994. –Б.441-542,
7. Хотира. Қўшимча жилд. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2005. –Б.79-81,
8. Хотира. Қўшимча 1-жилд. Андижон, Бухоро, Жиззах, Навоий, Наманган, Самарқанд вилоятлари. –Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти. –Б.27-30.,
9. Шамсутдинов Р. Ўзбекистон халқининг буюк ғалабага қўшган хиссаси. (1941-1945 йиллар). –Тошкент: «Академнаsr», 2020. –Б.417.
10. Andijon VDA 94-fond, 1-ro'uxat, 220-ish, 12-varaq.
11. Andijon VDA 505-fond, 1-ro'uxat, 6-ish, 104-110 varaqlar.
12. Marhamat TDA 44-fond, 1-ro'uxat, 1-ish, 1-varaq.
13. Marhamat TDA 98-fond, 1-ro'uxat, 167-ish, 1-25 varaqlar.